

RESEARCH ARTICLE

Coverage Of International Relations On Official News Agency Websites

Zahro Fayziyeva

Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 222-225

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article analyzes the information policy of official news agencies on international relations. The principles of diplomacy, information reliability and media diplomacy are studied using the examples of the National News Agency of Uzbekistan (UzA) and the Yonhap Agency of the Republic of Korea.

KEY WORDS

International journalism, official news agency, media diplomacy, information policy, UzA, Yonhap.

INTRODUCTION

Global axborot makonining kengayib borishi, xalqaro aloqalarning jadallashuvi va davlatlararo integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi rasmiy axborot agentliklarining rolini yanada kuchaytirdi. Xalqaro munosabatlarga doir xabarlar — davlat imijini shakllantirish, diplomatika jarayonlarini ommaga yetkazish, tashqi siyosatning mazmunini tushuntirishda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar yoki qo'shni davlatlar bilan siyosiy-ijtimoiy axborotlarni almashadigan va ular bilan hamkorlik qila oladigan axborot agentliklariga talab esa doimgidanda ortiqroqdir. Shu bois rasmiy axborot agentliklari (UzA, Yonhap, Khovar, TASS, Anadolu Agency, Xinhua, Reuters kabi) o'z saytlarida xalqaro munosabatlarga oid materiallarga keng o'rin beradi. Ammo, zamonaviy raqamli media sharoitida axborot agentliklari axborot olish tezligi va aniqligi borasida kuchli raqobatga duch kelmoqda. Har bir yangilik uchun kurash ketayotgan bir paytda, ishonchlilik omili agentliklar obro'sini belgilab beradi. Aynan mana shu jihatdan agentliklar oddiy blog va ijtimoiy tarmoq sahifalaridan farq qiladi. O'zbekiston misolida UzA axborot agentligi rasmiy

davlat pozitsiyasini aks ettiruvchi asosiy axborot resurslaridan biri bo'lib, unda xalqaro uchrashuvlar, tashqi siyosiy tashabbuslar, mintaqaviy hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalar muntazam yoritib boriladi. UzAning xalqaro munosabatlar bo'yicha materiallari mamlakat tashqi siyosatining ochiqligi, global jarayonlarda ishtirokini yoritish hamda diplomatik imijini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada rasmiy axborot agentliklari saytlarida xalqaro munosabatlarning yoritilishi mazmun, shakl va metodlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Rasmiy axborot agentliklarining xalqaro munosabatlardagi o'рни. Axborot agentliklari – bu matbuotda nashr etish, radio va televideniya orqali uzatish uchun axborotlarni to'plash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlardir[8]. Ular ommaviy axborot vositalarining asosiy va zaruriy manbalaridan biri bo'lib, yangiliklarni aniq va tezkorlik bilan yetkazish, tahlil qilish hamda ommaga taqdim etish vazifasini bajaradi[9]. Axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari (OAV) tizimining asosiy

hamda ayro bo'lmagan bo'lagi sanaladi. Axborot agentliklari faoliyati, odatda, axborotni yig'ish, ularni tahlil qilish, so'ngra tahrirlash va tarqatish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladigan tuzilmadir. Aslida, axborotlarning qanchalik aniq va sifatli bo'lgani aynan axborot agentliklarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'lib, biz aynan ushbu vositalar orqali ularning faoliyatiga baho berishimiz mumkin. Bundam tashqari, axborot agentliklari nafaqat yangiliklarni tarqatishda, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar haqida axborot berish, axborot xavfsizligini ta'minlash va jamoatchilik bilan samarali aloqalar o'rnatishda markaziy rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida jamoatchilik va hukumat o'rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda dunyoni yirik axborot markazlari boshqarib kelmoqda. Birgina "Reuters" agentligining 94 mamlakatning 200 ta shahrida o'z byurosiga ega bo'lsa, "Associated Press" agentligi 120 mamlakatda o'zining 243 ta byurosiga egadir. Mazkur axborot agentligining axborotlari har kuni 1700 tadan ortiq gazeta, 5000 taga yaqin telekanal va radiolar orqali keng jamoatchilikka yetkaziladi[10]. Shu sababli mamlakatimizda bu sohani ham rivojlantirishga bir qator ishlar olib borilmoqda. Shulardan biri 2019-yil 2-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bo'ldi. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasidagi axborot agentliklarini samarali tashkil etish, ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlatning ochiqlik siyosatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi davlat va jamiyat o'rtasida axborot almashish, ommaviy axborot vositalarining sifatini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarishda asosiy rol o'ynaydi.

Rasmiy axborot agentliklari - davlat siyosati va xalqaro kommunikatsiyaning asosiy kanallaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, axborot agentliklari xalqaro axborot oqimini to'g'ri, aniq va tezkor yetkazish orqali davlatlarning tashqi siyosiy manfaatlarini targ'ib qiladi[1]. Ular diplomatik axborotning ommaviy talqini uchun mediator vazifasini bajaradi.

Masalan, Yonhap (Janubiy Koreya), Xinhua (Xitoy), Anadolu Agency (Turkiya) va TASS (Rossiya) o'z mamlakatlarining tashqi siyosiy pozitsiyalarini xalqaro auditoriyaga yetkazishda faol ishtirok etadi. O'zbekistonda esa UzA, Dunyo axborot agentliklari mazkur funksiyani o'ziga xos tarzda bajarib, davlat

rahbari tashqi siyosatiga doir rasmiy axborotning asosiy manbai bo'lib kelmoqda. O'zbekiston sharoitida xorijiy ommaviy axborot agentliklarida o'z materiallarini e'lon qilayotgan jurnalistlarning faoliyati qonunchilik asosida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlar ommaviy axborot vositalari muxbirlarining kasb faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi (2006 yil 24-fevraldagi 33-son) qaroriga muvofiq tartibga solinadi[10].

Tadqiqotchilar rasmiy axborot agentliklarini davlatning kommunikatsion siyosatini shakllantiruvchi markaz sifatida ham talqin etadilar[1]. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro axborot oqimini boshqarish-global jarayonlar, diplomatik uchrashuvlar, xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida faktlarga asoslangan xabarlar berish.
2. Tashqi siyosat kommunikatsiyasining ommaviylashtirilishi-davlat pozitsiyasini xalqaro auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish.
3. Davlat imijini shakllantirish-milliy manfaatlarni xalqaro axborot maydonida targ'ib qilish.
4. Axborot xavfsizligini ta'minlash-xabarlarining ishonchliligi va siyosiy neytralligini saqlash.
5. Xalqaro jurnalistikadagi axborot almashuvini muvofiqlashtirish-boshqa agentliklar bilan hamkorlik, axborot sindikatsiyasi, material almashinuvi.

Shunday qilib, rasmiy axborot agentliklari xalqaro kommunikatsiyaning axborot oqimi, diplomatik ma'lumotlar va siyosiy tasvirni shakllantirish bo'yicha asosiy tarmoq hisoblanadi.

Xalqaro mavzularning yoritilishidagi janr va uslubiy xususiyatlar. Rasmiy axborot agentliklari xalqaro munosabatlarni aks ettirishda quyidagi janrlardan keng foydalanadi:

Rasmiy xabar – davlatlararo uchrashuvlar, muzokaralar, tashqi siyosiy tadbirlar haqida qisqa, aniq axborot.

Analitik sharh – xalqaro voqealarning sabab va oqibatlari haqida tahliliy fikrlar.

Intervyu – diplomatlar, ekspertlar, xalqaro tashkilot vakillari bilan suhbatlar.

Reportaj – xalqaro forumlar, sammitlar, uchrashuvlar jarayonidan jonli tasvir.

UzA misolida ko'rinadiki, xalqaro mavzular ko'proq rasmiy ohangda, diplomatik terminologiya va neytral tilda yoritiladi. Bu esa rasmiy axborot janrining talablari — aniqlik, ishonchlilik va faktlarga tayangan holda yoritilish bilan bog'liq. Hozirgi kunda UzA ko'plab axborot agentliklari bilan ham axborot almashinuv shartnomalariga ega. Jumladan, Yonhap(Koreya), Xinhua (Xitoy), Anadolu Agency (Turkiya), TASS (Rossiya) va boshqalar. Bu hamkorlik O'zbekistonning xalqaro imidjini oshirish, investitsiya jozibadorligini targ'ib qilish, mintaqaviy jarayonlarga oid kontentini global auditoriyaga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, mavzular qamrovining kengligi, berilayotgan maqolalar, xabarlar mazmun-mohiyatining chuqurligiga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekistonning iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayoti to'g'risidagi materiallar obyektiv va ishonchli tarzda tayyorlanadi. Muhim jihatlaridan biri shuki, ushbu axborot agentligi o'z o'quvchilari bilan bir nechta tilda muloqotga kirisha oladi. Natijada jahon media makonida O'zbekiston nufuzining oshishi ta'minlanadi. Xalqaro miqyosda e'tirof etilgan xorijiy internet qidiruv saytlarida aksariyat holatlarda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan milliy kommunikatsiya vositalari manbalariga tayanib, bevosita ular tarqatayotgan xabarlardan foydalanishadi. Bu, albatta, ijobiy holat bolib, muxbirlarimizning jahon media makoniga to'g'ridan to'g'ri kirib borishlari imkoniyatini bermogda.

Koreyaning rasmiy axborot agentligi sifatida Yonhap: milliy tashqi siyosatni keng qamrovda yoritadi, AQSh, Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharqda 60 dan ortiq muxbirlik punktlariga ega va global axborot tarmoqlariga integratsiyalashgan holda jahonning eng yirik agentliklari qatorida faoliyat yuritadi. Bu axborot agentligi keng qamrovli xalqaro tahliliy materiallar taqdim etishi, tezkor va yuqori darajadagi professional jurnalistikaga egaligi va multimedia formatlaridan faol foydalanishidagi jihatlari bilan boshqa agentliklardan ajralib turadi. Bundan tashqari, Koreya tashqi siyosatining global miqyosdagi strategiyasini iqtisodiy diplomatiya, texnologiya diplomatiyasi, xavfsizlik va madaniy hamkorlikni chuqur yoritadi. Koreyaning xalqaro imidji aynan Yonhap axborot agentligi orqali dunyo bo'ylab keng targ'ib qilinadi.

Xalqaro axborotning mazmuni va ustuvor yo'nalishlari. Rasmiy axborot agentliklarida xalqaro mavzular quyidagi yo'nalishlarda keng yoritiladi:

-Davlat rahbarlarining tashqi siyosiy uchrashuvlari va tashriflari

-Mintaqaviy hamkorlik (O'zbekiston – Markaziy Osiyo mamlakatlari)

-Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar (BMT, ShHT, OIC, Yevropa Ittifoqi va boshqalar)

-Iqtisodiy-diplomatik hamkorlik, investitsiyalar va savdo aloqalari

-Xavfsizlik va barqarorlik masalalari

-Inson huquqlari va global tashabbuslar

Masalan, UzA agentligi so'nggi yillarda davlat rahbari tashabbus qilayotgan "Markaziy Osiyo – mintaqaviy xavfsizlik", "Transchegaraviy suv resurslari", "Transport diplomatiyasi", "Inson qadri" konsepsiyasiga oid xalqaro mavzularni keng yoritib kelmoqda[3].

Mediakommunikatsiya va yangi media vositalaridan foydalanish. Zamonaviy axborot agentliklari o'z saytlarida xalqaro kontentni quyidagilar orqali boyitadi:

-Multimedia (foto, video, infografika)

-Ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya

-Mobil ilovalar orqali tezkor xabar tarqatish

-Raqamli jurnalistika standartlari (tezkorlik, verifikatsiya, faktcheking)

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ommaviy axborot vositalari xalqaro axborotni iste'mol qilish tezligini oshirgan[2]. Bu jarayon rasmiy agentliklarni yanada professional, raqamli va interaktiv bo'lishga undamoqda.

Xalqaro munosabatlarning yoritilishidagi muammolar. Rasmiy axborot agentliklarida xalqaro mavzular yoritilishida bir qator cheklovlar mavjud:

1. Rasmiylikning yuqori darajasi - muqobil fikrlar kam beriladi
2. Geosiyosiy manfaatlarga bog'liqlik - ayrim axborotlar tanlab yoritiladi
3. Tahliliy materiallarning yetishmasligi
4. Xalqaro ekspertlarning fikrlari kam qo'llanadi, shunga qaramay, rasmiy agentliklar xalqaro munosabatlar bo'yicha asosiy ishonchli manba bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Rasmiy axborot agentliklari zamonaviy axborot makonining muhim bo'g'ini sifatida xalqaro munosabatlar yoritilishida beqiyos o'rin tutadi. Ular davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati, diplomatik uchrashuvlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va global jarayonlar haqida rasmiy, aniq va ishonchli ma'lumotlarni keng auditoriyaga yetkazadi. O'zbekistonda UzA axborot agentligi mazkur yo'nalishda yetakchi resurs bo'lib, xalqaro axborotning rasmiy talqinini shakllantiradi. Raqamli media davrida rasmiy agentliklarning vazifasi yanada kengayib, ular multimedia formatida tezkor, tahliliy va ishonchli xalqaro kontent taqdim etishi zarur. Mazkur jarayon jurnalistikada professional standartlar, verifikatsiya va tashqi siyosat kommunikatsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

REFERENCES

- [1] – News Agencies in the Turbulent Era of Globalization, O.Boyd.Barrett, Barcelona, Media XXI.
- [2] – An Introduction to Political Communication. Routledge. McNair.B, 2017.
- [3] – O'zbekistonda OAV tizimi va raqamli axborot siyosati. Rasulov.O, Toshkent: Fan, 2021.
- [4] – International news flow and state information policy. Moscow, 2019.
- [5] – International Communication: Continuity and Change. Bloomsbury. Thussu, D. K,2018.
- [6] – O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA rasmiy sayti (materiallar tahlili).
- [7] – Anadolu Agency, TASS, Reuters va Xinhua rasmiy saytlaridan olingan xalqaro materiallar tahlili.
- [8] – Ilmiybaza.uz – "Rasmiy axborot tayyorlash va tarqatish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanma". Havola: <https://ilmiybaza.uz/document/rasmiy-axborot-tayyorlash>.
- [9] – Milliycha.uz – "Axborot agentliklari – Milliylik-millat ko'zgusi". Havola: <https://milliycha.uz/axborot-agentliklari>
- [10] – Zamonaviy media muhitida PR-xizmatlar – VIII jild, Toshkent-2019